

O'QUVCHILARDA AQLIY TARBIYA VA TAFAKKUR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK BOSQICHLARI

Xurramova Dilorom Nurmaxmatovna

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 69-maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarda aqliy tafakkurning shakllanish bosqichlari, uning psixologik xususiyatlari hamda tafakkur rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Aqliy tafakkur, bilish jarayonlari, psixologik rivojlanish, mantiqiy fikrlash, tafakkur turlari, idrok, xotira, ta'lim jarayoni, psixologik yondashuv, o'quvchi shaxsi.

KIRISH

Inson tafakkuri uning bilish faoliyatining eng yuqori shakli hisoblanadi. Tafakkur orqali inson atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ular o'rtasidagi bog'lanishlarni anglaydi. O'quvchilarda aqliy tafakkurning shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo'lib, u yosh xususiyatlari, ta'lim muhiti va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanadi. Aqliy tafakkur bolaning dastlabki hayot bosqichlaridan boshlab shakllana boshlaydi. Dastlab bola predmetlarni sezgi va idrok orqali anglaydi. Keyinchalik esa tajriba ortishi bilan tafakkur jarayonlari rivojlanib boradi. Shu sababli tafakkur rivojlanishi bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Psixologiyada tafakkur shakllanishining bir necha bosqichlari ajratiladi. Birinchi bosqich — ko'rgazmali-harakatli tafakkur bo'lib, bunda bola amaliy harakatlar orqali fikrlaydi. Masalan, predmetlarni ushlab ko'rish, taqqoslash va amaliy faoliyat orqali muammoni hal qilish ushbu bosqichga xosdir. Ikkinchi bosqich — ko'rgazmali-obrazli tafakkur hisoblanadi. Bu davrda o'quvchi predmet va hodisalarni tasavvur orqali anglay boshlaydi. Rangli rasmlar, sxemalar va ko'rgazmali vositalar bolaning tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi bosqich mantiqiy tafakkur bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda o'quvchilar tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallaydilar. Ayniqsa, boshlang'ich sinfdan yuqori sinflarga o'tish jarayonida mantiqiy tafakkur faol rivojlanadi. Jean Piaget tafakkur rivojlanishini yosh bosqichlari bilan bog'lab o'rgangan. Uning nazariyasiga ko'ra, kichik maktab yoshidagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo'lib, ular aniq predmet va hodisalar asosida fikrlaydilar. O'smirlik davriga kelib esa abstrakt tafakkur rivojlana

boshlaydi.

Lev Vygotsky esa tafakkurning rivojlanishida ijtimoiy muhit va ta'limning roliga alohida e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, bolaning tafakkuri kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlik faoliyatida shakllanadi.

Ta'lim jarayonida tafakkurni rivojlantirish uchun interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Muammoli vaziyatlar yaratish, mantiqiy savollar berish, munozaralar tashkil etish va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Maktab amaliyotchi psixologi tafakkuri sust rivojlangan yoki o'quv faoliyatida qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilar bilan individual korreksion mashg'ulotlar olib borishi zarur. Psixologik treninglar va rivojlantiruvchi o'yinlar tafakkur faolligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, oiladagi sog'lom psixologik muhit, kitob mutolaasi va ijodiy faoliyatlar ham bolaning aqliy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ota-onalarning farzand bilan muntazam muloqot qilishi va uni mustaqil fikrlashga undashi tafakkur rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Farobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm/fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimni, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti, tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Farobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, insonkamolotini ta'minlashdagi roli, yovuzliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi.

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir,

Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Aqliy tarbiya-shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to'plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash,

umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya vazifasi intellektual ko'nikmalar, ya'ni har qanday fanni o'rganishda qo'llaniladigan umumiy o'quv ko'nikmalari - o'qish, tinglash, o'z fikrini og'zaki bayon etish, yozish, manbaa bilan ishlash, mustaqil ishlash malakalarini shuningdek biror fanni egallash bo'yicha zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalar(chizma, xaritalarni o'qiy olish, ularning natijalarini chiqara olish)ni egallashdan iborat. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ya'ni bolalarga olam ilmiy manzarasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir. Bunda bolalar hayotining dastlabki yilidayoq atrofni o'rab turgan barcha bilan tanishtirib boorish muhim ahamiyatga ega. Aqliy tarbiya ta'lim, o'yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda, ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirishda ro'y beradi.

Aqliy tarbiya tabiatan insonga berilgan aqliy kuch hisoblanadi, insonning biluvchanlik qobiliyatining kuchli ekanligi uning aqliy tarbiyasi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ba'zi insonlar tug'ma shunday bo'lsalar ba'zilar uni hayot yo'li davomida turli bilimlarni olish yo'li bilan oshirib boradilar. Aqliy tarbiyasi bor o'quvchi mustaqil fikr yurita oladi va mustaqil qarorlar qabul qila oladi hamda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga harakatni to'g'ri yo'naltira oladi. Shuning uchun ham o'quvchilarda aqliy tarbiyani rivojlantirish muhimdir.

Bilim dunyoqarashning asosini tashkil qiladi. Bilimi yuqori insonning dunyoqarashi ham yuqori bo'ladi. Aqli bilim o'quvchilarda tanqidiylik, mantiqiy fikrlay olish, ziyaklik, sinchkovlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarning aqliy tarbiyasini rivojlantirishda jamiyat, oila, maktabning o'rni beqiyosdir. Solishtirib ko'radigan bo'lsak, bola kichikligidab boshlab sog'lom muhitda hamda kitobsevar, ziyoli oila qurshovida kata bo'lsa va maktabdaham muhit xuddi shunday yaxshi bo'lsa, ya'ni bola kichikligida sog'lom muhitda kata bo'lsa albatta uning aqliy tarbiyasi yuqori bo'ladi. O'zini boshqara olish qobiliyati ham yuqori bo'ladi. Hozirgi vaqtda o'quvchilarni aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi turli o'yinlar mavjud.

Hozir vaqtda o'yinlarning yangi turi - kompyuter o'yinlari paydo bo'lmoqda. Ular bevosita intellektual rivojlanish bilan bog'liq. Bir tomondan, ular vizual-samarali va vizual-majoziy fikrlashni rivojlantirishdan iborat bo'lgan bolaning psixologik tayyorgarligini talab qiladi, boshqa tomondan, ular mantiqiy fikrlash asoslarini rivojlantirishning muhim vositasiga aylanishi mumkin. Biroq, kompyuter o'yinlari va ularning mazmuni jiddiy ilmiy asoslashni talab qiladi va hozirgacha bolalar bog'chalarida tajriba asosida, mutaxassislar - o'qituvchilar, psixologlar nazorati ostida qo'llanilishi mumkin. Ammo, shubhasiz, ular bolaning intellectual rivojlanishiga qaratilgan mablag'lar arsenalini to'ldiradigan kun uzoq emas.

Didaktik o'yinlar maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida kata o'rin tutadi. Ular

bevosita ta'lim faoliyatida va bolalarning mustaqil faoliyatida qo'llaniladi. O'quv quroli vazifasini bajaruvchi didaktik o'yin bevosita ta'lim faoliyatining ajralmas qismi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash, kognitiv faoliyat usullarini o'zlashtirishga yordam beradi. Bolalar ob'ektlarning belgilarini o'zlashtiradilar, tasniflashni, umumlashtirishni, taqqoslashni o'rganadilar. Didaktik o'yindan o'qitish usuli sifatida foydalanish bolalarning darslarga qiziqishini oshiradi, diqqatni jamlashni rivojlantiradi va dastur materialini yaxshiroq o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ushbu o'yinlar, ayniqsa, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanish uchun sinfda samarali. Yuqoridagi talablar bajarilsa, o'quvchilarda aqliy tarbiyani rivojlantirish ehtimoli oshadi. Albatta aqliy tarbiyani rivojlantirishda uni albatta yanayam shakllantirish va rivojlantirib borish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda aqliy tafakkurning shakllanishi murakkab va uzluksiz psixologik jarayon hisoblanadi. Tafakkurning to'g'ri rivojlanishi o'quvchilarning bilim olish faoliyati, mustaqil fikrlashi va shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchilarning tafakkur faoliyatini samarali rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.
2. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*, 3, 710-719. (2023) 6. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*, 3, 734-745 (2023).
3. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995
4. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414
5. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.
6. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 240–242. Retrieved from